

Belgili va satrli miqdorlar bilan ishlash

- Concat(S1,S2, ...Sn) funksiyasining vazifasi nima?**
S1, S2,...Sn satrli (yoki belgili) o'zgaruvchilar (yoki o'zgarmaslarni bir-biriga ketma-ket ulaydi.
- Length(S) funksiyasining vazifasi nima?**
S satrning uzunligini (belgilar sonini) aniqlaydi.
- Pos(b,S) funksiyasining vazifasi nima?**
*S satrning ichidan **b** so'zining o'rnini aniqlaydi, bo'lmasa natija 0 ga teng bo'ladi.*
- Copy(S,n1,n2) funksiyasining vazifasi nima?**
S satrining n1-belgisidan boshlab n2 ta belgisining nusxasini oladi.
- Ord(b) funksiyasining vazifasi nima?**
b belgisining ASCII kodini aniqlab beradi.
- Chr(n) funksiyasining vazifasi nima?**
ASCII kodi n ga teng belgini aniqlaydi.
- Delete(S,n1,n2) protsedurasining vazifasi nima?**
S satrning n1-belgisidan boshlab n2 ta belgisini olib tashlaydi.
- Insert(S1,S,n) protsedurasining vazifasi nima?**
S satrga n-o'rindan boshlab S1 satrni joylashtiradi.
- Str(a,S) protsedurasining vazifasi nima?**
S satrli o'zgaruvchining qiymati a sonining satr ko'rinishidagi ifodasiga teng bo'ladi.
- Val (S,a,c) protsedurasining vazifasi nima?**
a sonli o'zgaruvchining qiymati S satrli o'zgaruvchining son ko'rinishidagi ifodasiga, c esa nolga teng bo'ladi. Agar berilgan satrni son ko'rinishida ifodalab bo'lmasa, a ning qiymati nolga teng bo'ladi, c ning qiymati esa satrning son ko'rinishida ifodalashda xatolikka sabab bo'lgan nomeriga teng bo'ladi.
- Paskal dasturlash tilida belgili va satrli o'zgaruvchilarda qo'llaniladigan funksiya, shu turdagi o'zgaruvchilar uchun qo'llaniladigan protseduradan qanday jihati bilan farq qiladi?**
Dasturda funksiyalar qo'llanilganda ularning qiymati biror o'zgaruvchiga o'zlashtiriladi, protseduralar ishlatilganda esa o'zlashtirish operatorisiz yoziladi.
- Paskal dasturlash tilida o'zgarmaslar qanday belgiyordamida yoziladi?**
Paskal dasturlash tilida o'zgarmaslar "=" belgi yordamida yoziladi.
- Paskal dasturlash tilida o'zgaruvchilar qanday belgi yordamida yoziladi?**
Paskal dasturlash tilida o'zgaruvchilar ":" belgi yordamida yoziladi.